



ONA TILI DARSLARIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

G'AFUROVA UMIDA MAMARODJOBOVNA

*Denov tuman 6-umumiyl o'rta ta'lim
maktabining ona tili va adabiyot
fan o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usullarini, shuningdek muammolarni aniqlash va hal etish jarayonlarini yoritadi. T-jadvali va venn diagrammasi kabi vositalar ma'lumotlarni samarali tarzda kuzatish va taqqoslashga yordam beradi. Muammolarni hal etish usullarida "Nima uchun?", "Baliq skeleti", "Piraminada" kabi sxemalar keltirilgan bo'lib, ular muammoni tahlil qilish va rejalashtirishda foydali vosita sifatida xizmat qiladi. Ona tili darslarida "Daraxt" va "Insert" grafik organizatorlari, shuningdek Bloom taksonomiyasi o'quv jarayonini yanada samarali qilishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: Ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash usullari , muammolarni hal etish, grafik organizatorlar , t-jadval, venn diagramma, nima uchun? baliq skeleti, piraminada, ona tili darslari, daraxt, insert

Abstract: This article covers methods for analyzing, comparing, and contrasting data, as well as the processes of identifying and solving problems. Tools such as the T-chart and the Venn diagram help to effectively monitor and compare data. Problem-solving methods include diagrams such as "Why?", "Fish skeleton", and "Pyramid", which serve as useful tools for analyzing and planning problems. In native language classes, the graphic organizers "Tree" and "Insert", as well as Bloom's taxonomy, help to make the learning process more effective.

Keywords: Data analysis, comparison methods, problem solving, graphic organizers, t-chart, venn diagram, why? fish skeleton, pyramid, native language classes, tree, insert

Kirish



Ta’lim – tarbiya bu murakkab jarayon. Unda xatoga o‘rin yo‘q. Shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lish uchun tinimsiz mehnat qilish lozim. Har bir o‘qituvchi har kuni “men bugun nimani o‘qitaman, qanday o‘qitaman, nimadan o‘qitaman”, -degan savol bilan darslarga mukammal tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Zamonaviy usullar, yangicha qarashlar bizni o‘z kasbimizning yetuk mutaxasisiga aylantiradi, jamiyatda munosib o‘rin topishga yordam beradi. O‘quvchilarning g‘oyalarini yanada rivojlantirishga bizga yangicha qarashlar kerak. Eskicha qarashlar orqali faqat va faqat natijasizlik yuzaga keladi. Yangicha ong bilan rivojlanayotgan o‘quvchi-yoshlarni o‘sishiga to‘sqinlik qilib qo‘yishimiz aniq. Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, avvalambor, farzandlarimizning ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liq. Bugungi kunga kelib jamiyatimiz va aynan mamlakatimizdagi ta’lim-tarbiya sohasida kechayotgan jarayonlar, xususan, yosh avlodning yorqin kelajagi yo‘lida olib borilayotgan oqilona siyosatlar ham kelajagimiz vorislarining istiqboliga qaratilgan. Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham o‘z faoliyatlarida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalasiga alohida ahamiyat berayotganliklarining guvohimiz. Davlatimiz rahbari 2020-yil 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan butun xalq ta’limi tizimiga yo‘llagan tabrik nutqlarida shunday deydilar: “Taraqqiyotning tamali toshi – mamlakatning qudrati, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda maktab bitiruvchilari zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari, xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirishlari, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishlari, zamonaviy texnologiyalarni tushunib, ulardan foydalanishlari ta’lim jarayonida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

O‘quvchilarimizda aniq maqsadlarni shakllantira olish, rejalashtirish, ilmiy tafakkurni shakllantirish, ularni mustaqil izlanishga undash ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu metodik tavsiyanoma aynan shunday maqsadlarga



erishiga yordam beradi.

Grafik organayzer¹

Turli komponentlar o‘rtasidagi g‘oyalar, tushunchalar va o‘zaro ta’sirlar grafik organayzerlarda vizual tarzda ifodalanadi. Bilim xaritalari va kontseptsiya xaritalari ikkalasi ham grafik organayzerlarning toifalaridir. Har bir grafik yoki diagramma ma’lumotlarni solishtirish va hikoya qilish uchun grafik organayzer sifatida ishlatilishi mumkin. Grafik organayzerni yaratishda aniq ko‘rsatmalar mavjud emas. Siz undan xulosalar chiqarish va har qanday mavzu bo‘yicha o‘z g‘oyalaringizni tasavvur qilish uchun kontseptsiya xaritasi vositasi sifatida foydalanishingiz mumkin. Bundan tashqari, grafik organayzerning asosiy g‘oyasi o‘quvchilarga o‘z fikrlarini aniq aytishga yordam berishdir. Bundan tashqari, grafik organayzerdan foydalanishda ko‘proq afzalliklarga ega bo‘lishingiz mumkin. Bu ikki yoki undan ortiq komponentlar o‘rtasidagi munosabatlarni tezda o‘rnatishga yordam beradi. Bundan tashqari, ma’lumotlarni chalkashtirib yuborish o‘rniga, ularni jadvallar orqali tartibga solishingiz mumkin. Shuningdek, u o‘quvchilarga muayyan muammoning mumkin bo‘lgan yechimini yaratishga yordam beradi. Grafik organayzerdan foydalanganda ko‘proq narsalarni o‘rganishingiz mumkin.

Grafik organayzer quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ma’lumotlarni tarkiblash va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqeja va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali kabilar.

2. Ma’lumotlarni taxlil qilish, solishtirish va taqqoslash usuli va vositalari.

T-jadvali, venn diagrammasi va boshqalar.

3. Muammolarni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalahtirish usullari va vositalari: ” Nima uchun?”, ”Baliq skeleti”, ” Piramida”, ” Nilufar guli” sxemalari, ” Qanday?” ierarxik diagrammasi kabilardir.


Ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanish metodikasi

Ona tili darslarida “Blum taksonomiyasi” foydalanish metodikasi

¹ Grafik organayzer (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi.

“Taksonomiya” – bu biror narsani ierarxik tartib

TAVSIYA




joylashtirish prinsipi degan ma'noni bildiradi. Amerikalik psixolog Benjamin Blum boshchiligidagi Chikago universiteti olimlari ushbu oliy maqsadlar tizimini ishlab chiqishgan. Bu g'oya birinchi marta 1956-yilda “Ta’lim maqsadlari taksonomiyasi” kitobida nashr etilgan.

Ona tili darslarida “Daraxt” grafik organayzeridan foydalanish metodikasi

TAVSIYA

DARAXT

MAVZU



“Daraxt” grafik organayzeri haqiqiy daraxtga o‘xshaydi. Ona tili darslarida tushunchalarni tasniflashda yordam beradi. Yuqori qism - asosiy mavzu yoki sarlavha. Keyin, quyida pastki mavzular yoki saralashlar mavjud. Kichik mavzular ostida u tegishli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi va ro‘yxatni shakllantiradi. Mustaqil so‘z turkumlarini o‘tishda va tasniflashda eng yaxshi jadval hisoblanadi.

TAVSIYA

Ona tili darslarida “Insert jadvali” grafik organayzeridan foydalanish metodikasi

“INSERT” jadvali. Olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o’zlashtirgan ma’lumotlarni bog’lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bolada taqqoslash qobiliyatini rivodlantiradi diqqatni oshiradi.

“INSERT” jadvali o‘quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi.

O‘qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o‘zları tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga “kiritadilar” matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq:

“V” - men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;



“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to’ldirish talab etiladi.

| V | + | - | ? |
|---|--|--|---|
| So‘z turkumlari 3 guruhga bo‘linadi | Fe’l yasovchi -la qo’shimchasi fe’ldan fe’l yasamaydi | Takrorlash va juftlash orqali ravish yasalishi | O‘zbek tilida sof turkiycha bog‘lovchilar yo‘q |
| | | | |


TAVSIYA

Ona tili darslarida “Tushunchalar tahlili” grafik organayzeridan foydalanish metodikasi

| Tushunchalar | Sizningcha tushuncha | bu Tushunchaning ilmiy qanday tarifi |
|---------------|-------------------------|---|
| Fonetika | | |
| Leksikologiya | | |
| Morfologiya | | |
| Sintaksis | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

Ona tili darslarida “cho‘qqiga chiqish” grafik organayzeridan foydalanish metodikasi

SINONIMLAR CHO'QQISI



“Cho‘qqiga chiqish” grafik organayzeridan ona tili darslarida “So‘zlarning shakl va ma’no turlari” mavzusini o‘tishda foydalanish ijobiy natijalar beradi. Masalan, yuqorida keltirilgan sinonimlar cho‘qqisida berilgan so‘zlar soniga mos sinonim topish talab etiladi.

Odam, kishi, inson, shaxs, fuqaro;

Do‘sst, o‘rtoq, oshna, jo‘ra, birodar, ulfat;

Taom, ovqat, yemak, xo‘rak, ozuqa, ne’mat, yemish;

Osmon, samo, fazo, koinot, falak, ko‘k, gallaktika, gardun;

Payt, kez, on, lahza, soat, daqiqa, soniya, vaqt, fursat.

Grafik organayzerning foydali tomonlaridan yana biri aynan uyga vazifalarda o‘z aksini topadi. Chunki grafik organayzerlar shaxsning tafakkur dunyosidan kelib chiqib, mavzularga moslashtirilaveradi. Shu jihatdan bolalarga ma’lum mavzudan o‘zlari grafik organayzer tayyorlash topshirig‘ini berish maqsadga muvofiqdir. Bu ulardagi rejorashtirish qobiliyatini yanada oshiradi.

Xulosा.

Ona tili va adabiyot darslarida yuqoridagi kabi grafik organayzerdan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga, mustaqill fikrlashga, maqsadni aniq qo‘ya olishga, tez rivojlanayotgan jamiyatda o‘z



o‘rnini topa olishiga, axloqiy va estetik didini tarbiyalashga, o‘qituvchilarga esa darslarni qiziqarli va sifatli tashkil etishga, darsdan ko‘zlangan aniq maqsadlarga yetishga yordam beradi. Darslikda berilgan materiallar bilan uyg‘unlashgan holda, topshiriq va vazifalarni maqsadga muvofiq uyushtirish ko‘nikmalarini shakillantiradi. Yuqoridagi metodlarning barchasi o‘quvchilarni dars jarayonini to‘g‘ri tashkillashtirishga, jamoa bo‘lib ishlashga, o‘zaro muloqot yaratishga, kritik va krativ fikrlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hasanov M., Yo‘ldoshev B. Lingvistik innovatsiyalar va o‘qitish texnologiyalari. – Toshkent: Universitet, 2021.
2. “Yangi davr darsliklari” Z.I.Usmanova. (2021)
3. O‘zbek tilining sinonimlar lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2017.
4. G‘ulomov Q., Jo‘rayev A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Iroda Ishonxanova. Blum taksonomiyasining o‘zbek adabiyotini o‘rganishdagi ahamiyati. -Toshkent. 2024
- 6.Ziyonet elektron kutubxonasi: www.ziyonet.uz